

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TARMOQLAR IQTISODIYOTI KAFEDRASI**

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK: 338:333(338.2)*

**SIDIKOV TOLIB ISKANDAROVICH**

**IQTISODIYOT TARMOQLARIDA BANDLIK VA ISH HAQI  
KO‘RSATKICHLARI MA’LUMOTLAR BAZALARINI  
INTEGRATSIYALASH**

**70310102– Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi  
bo‘yicha**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**



**I.F.D., Prof. Sh. R. Xolmo‘minov**

**TOSHKENT-2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 98 - sonli bayonnoma "2" "05" 2023 y.


Ilmiy rahbar: I.F.D., Prof. Sh. R. Xolmo'minov

Magistr: T. I. Sidikov

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil "29" "05"  
№ 2/22 raqami bilan ro'yxatga olingan

**"Himoyaga ruxsat etiladi"**

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasini  
mudiri dots. I. Xotamov   
"8" "05" 2023 yil

Himoya Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida  
2023 yil "29" "05" soat "10<sup>00</sup>" da bo'ladi

## ANNOTASIYA

Dissertatsiyada iqtisodiyot tarmoqlarida ish haqi va bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazalarini integratsiyalashni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqish asosiy maqsad qilib olingan bo'lib, o'z oldiga bandlik va ish haqi bo'yicha ilmiy yondashuvlar va xorijiy tajribalarni o'rganish bilan birga integratsiyalashning nazariy va metodologik asoslari, asosiy yo'nalish va bosqichlari hamda istiqbollari belgilangan holda integratsiyalash bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati bevosita iqtisodiyot tarmoqlarida ish haqi va bandlik to'g'risidagi ma'lumotlarni integratsiyalashning nazariy asoslarini boyitish, ish haqi va bandlik to'g'risidagi ma'lumotlarni integratsiyalash uslubiyatlarini ishlab chiqilishi bilan belgilangan. Dissertasiyaning muhim jihati shundaki, aholi bandligi va ish haqi tahliliga xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini kiritishdir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda bandlik va ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'pincha turli ma'lumotlar bazalarida tarqaladi, bu esa ularni to'plash va tahlil qilishni qiyinlashtiradi. Mazkur magistrlik ishida taklif qilingan ma'lumotlar integratsiyasi ushbu muammoni hal qilishga yordam beradi va ma'lumotlarni yanada samarali tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** *bandlik, aholi bandligi, ish haqi, raqamli texnologiya, ma'lumotlar bazasi, integratsiya.*

## ANNOTATION

In the dissertation, the main stages of integration of databases of employment and wage indicators in economic sectors are defined, scientifically based conclusions on improving the integration of databases on wages and employment indicators in economic sectors are developed, and theoretical approaches of integration are studied along with the study of scientific approaches and foreign experiences on employment and wages. and proposals for integration of methodological foundations are given. At the same time, the prospects of integration of databases of employment and salary indicators in economic sectors are shown.

It is also worth noting that currently, data on employment and wages are often scattered in different databases, which makes it difficult to collect and analyze them. In this master's thesis, the proposed data integration solutions to this problem are proposed.

**Key words:** *employment, population employment, wages, digital technology, database, integration.*

## MUNDARIJA

	Annotasiya	3
	Mundarija	5
	Keltirilgan jadvallar ro'yxati	6
	Keltirilgan rasmlar ro'yxati	6
	Keltirilgan qisqartmalar	8
<b>I BOB.</b>	<b>KIRISH</b>	9
1.1.	Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	10
1.2.	Tadqiqot maqsadi va vazifalari	14
1.3.	Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	14
1.4.	Tadqiqot ishining obyekti va predmeti	16
1.5.	Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	16
1.6.	Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	17
<b>II BOB.</b>	<b>ADABIYOTLAR SHARHI VA TAHLILI</b>	18
2.1.	Bandlik va ish haqi bo'yicha ilmiy yondashuvlar sharhi	18
2.2.	Bandlik va ish haqi ko'rsatkichlarini iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha xorijiy tajribalar tahlili	23
<b>III BOB.</b>	<b>TADQIQOT METODOLOGIYASI</b>	31
3.1.	Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari	31
3.2.	Ma'lumotlarni to'plash jarayonlari	34
3.3.	Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	36
<b>IV BOB.</b>	<b>IQTISODIYOT TARMOQLARIDA ISH HAQI VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI MA'LUMOTLARI BAZALARINI INTEGRATSIYALASH TAHLILI VA ISTIQBOLLARI</b>	37
4.1.	Iqtisodiyot tarmoqlarida ish haqi va bandlik ko'rsatkichlari ma'lumotlari bazalarini integratsiyalashning asosiy bosqichlarini tashkil etish	37
4.2.	Bandlik va ish haqi ko'rsatkichlari ma'lumotlari bazalarini integratsiyalash jarayoninig asosiy yo'nalishlari tahlili	39
4.3.	Iqtisodiyot tarmoqlarida ish haqi va bandlik ko'rsatkichlari ma'lumotlari bazalarini integratsiyalash istiqbollari	55
<b>V BOB.</b>	<b>XULOSA VA TAKLIFLAR</b>	59
5.1.	Bandlik va ish haqi ko'rsatkichlari ma'lumotlari bazalarini integratsiyalash bo'yicha xulosa va takliflar	59
5.2.	Ilmiy yangiligi va fan qo'shilgan hissasi	61
5.3.	Tadqiqot natijalarning amaliyotga ahamiyati	62
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	65

## I BOB. KIRISH

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to'liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga keng qulaylik yaratish va uni yuritishni soddalashtirish, yangi innovatsion g'oyalarni takomillashuviga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 9-maqsadida "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali davlat organlari hamda xususiy tijorat tashkilotlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish asosida byurokratik jarayonlarni qisqartirish" belgilab berilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlarida ish haqi va bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash asosida aholi bandligini ta'minlash hamda ularni mehnatlariga yarasha haq to'lashni tezkor monitoring qilish, kambag'allikni qisqartirish hamda aholini ijtimoiy himolalash Respublikamizning bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ish haqi va bandlik ko'rsatkichlari ma'lumotlar bazalarining integratsiyalashuvi ushbu ko'rsatkichlarning iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ta'siridagi farqlarni batafsil tahlil qilish va aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, ish haqi va bandlik ko'rsatkichlarining ma'lumotlar bazalarini birlashtirish mehnat bozorida muammolar va tengsizliklarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, ushbu ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aholining ayrim guruhlarini (masalan, ayollar, migrantlar, nogironlar) ishga kirish va munosib ish haqi olishda muammolarga duch kelishadi. Bu davlat va biznes hamjamiyatiga ushbu